QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

IMPERATIV MAQOLLAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.011

Ozoda Farxodovna Achilova
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O‘zbekiston

ANNOTASIYA Maqolada imperativlik kategoriyasining tilshunoslikdagi nazariy talqini va uning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Imperativlik faqat grammatik shakl sifatida emas, balki nutqiy akt va ijtimoiy kommunikasiya vositasi sifatida qaraladi. XIX–XX asr tilshunosligida strukturalizm va pragmatika yo‘nalishlari ta’sirida imperativ tushunchasining semantik va funksional jihatlari kengaygani ko‘rsatiladi. Jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan bildirilgan qarashlar asosida imperativ shaklning turli ma’nolari va nutq kontekstiga bog‘liqligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: imperativlik, imperativ shakl, nutqiy akt, pragmatika, kommunikativ vazifa, xalq maqollari, lingvomadaniyatshunoslik, pragma-diskursiv tahlil, illokutiv akt.

АННОТАЦИЯ В статье анализируется теоретическая интерпретация категории императива в лингвистике и её коммуникативно-прагматические особенности. Императивность рассматривается не только как грамматическая форма, но и как речевой акт и средство социальной коммуникации. Показано, что семантические и функциональные аспекты понятия императива расширились под влиянием структурализма и прагматики в лингвистике XIX–XX веков. На основе взглядов, выраженных мировыми и узбекскими лингвистами, выделены различные значения императивной формы и её зависимость от контекста речи.

Ключевые слова: императивность, императивная форма, речевой акт, прагматика, коммуникативная задача, народные пословицы, лингвистические и культурологические исследования, прагма-дискурсивный анализ, иллокутивный акт.

ABSTRACT The article analyzes the theoretical interpretation of the category of imperative in linguistics and its communicative-pragmatic features. Imperativeness is considered not only as a grammatical form, but also as a speech act and a means of social communication. It is shown that the semantic and functional aspects of the concept of imperative expanded under the influence of structuralism and pragmatics in linguistics of the 19th–20th centuries. Based on the views expressed by world and Uzbek linguists, the various meanings of the imperative form and its dependence on the context of speech are highlighted.

Keywords: imperativeness, imperative form, speech act, pragmatics, communicative task, folk proverbs, linguistic and cultural studies, pragma-discursive analysis, illocutionary act.

Kirish. XIX-XX asr tilshunosligida strukturallik va keyinchalik pragmatika yo‘nalishlari rivojlanishi bilan bog‘liq holda imperativlik faqat grammatik shakl emas, balki komunikativ vazifa**,** mazmun**,** nutqiy akt sifatida ham o‘rganila boshlandi. “*Imperativ*” tushunchasi aslida lotincha “*imperativus*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*buyuruvchi*” yoki “*farmon beruvchi*” ma’nolarini anglatadi. Ushbu tushuncha dastlab grammatik kategoriya sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik u semantik, pragmatik, hatto sotsiolingvistik nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlillarni qamrab oldi. Bugungi kunda imperativlik nafaqat buyruq berish, balki ijtimoiy nutqiy akt sifatida ham talqin qilinmoqdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Imperativlik taklif, maslahat, buyruq, iltimos va ogohlantirish hamda harakatga undash kabi modal ma’nolarga ega bo‘lgan fe’l shakli bo‘lsa-da, V.V. Vinogradov, V.S. Xrakovskiy va boshqa tilshunoslar tomonidan buyruq mayli sifatida qaralgan holda “imperativlik buyruq gaplar bilan bir xillikka egadir” deb ta’riflanadi. Shuningdek, A.V. Bondarkoning ilmiy asarlari va nazariyalari tilshunoslikda imperativlikning semantik va pragmatik aspektlarini chuqur o‘rganishga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Uning asarlarida buyruq shakllarining til tizimidagi o‘rni va funkцiyasiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. Chunonchi, olim imperativlikni funksional-semantik yondashuvlarga tayangan holda, faqat fe’lning morfologik shakli emas, balki murakkab kommunikativ kategoriya sifatida ham talqin qilish tarafdori ekanligini ta’kidlaydi.

Imperativ shaklning grammatik tahlili, uning til tizimidagi o‘rni va turli kommunikativ maqsadlar uchun qo‘llanilishi haqida nazariy yondashuvlarga urg‘u beradi. Sh. Abdullayev imperativ fe’lni o‘zbek tilidagi subyektiv va obyektiv ifodalar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, imperativ fe’lning ifodalovchi ma’nosi ko‘pincha nutqning konteksti va muloqotdagi ehtiyojlarga bog‘liq bo‘lib, imperativ shaklning xususiyatlari jamiyatda ijtimoiy voqelikka bog‘liq holda o‘zgaradi. A.Yo‘ldoshev esa imperativning semantik jihatlarini o‘rganishda buyruq shaklining iltimos, tavsiya, ruxsat berish kabi turli ma’nolari mavjudligini ta’kidlaydi va ularning muloqot muhitida faollashuviga oid pragmatik tahlillarga tayanadi.

Yuqorida qayd etilganlar asosida imperativlikning xalq maqollari bilan bevosita bog‘liq jihatlari namoyon bo‘ladi. Binobarin, maqollar ko‘p hollarda imperativ (ya’ni buyruq, maslahat, ko‘rsatma va maslahat berish kabi) mazmunda voqelanib, jamiyatda axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy me’yorlarni targ‘ib qilish maqsadida nutqimizda faollashadi.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelgan maqollar teran mazmunga ega bo‘lib, ular iboralar va hikmatli so‘zlar kabi barqaror birliklar hisoblanadi. Maqol va ibora bir nuqtada umumiyatga ega, u ham bo‘lsa nutq jarayonida tuzilmasligi, nutqqa tayyor holda kiritilishidir. Maqollarni nutqqa tayyor holda kiritish ma‘lum talab asosida yuz beradi, albatta. Bunday talab juda keng tarqalgan bo‘lib, unga o‘zganing nutqini aynan keltirish hodisalarining barchasida amal qilinadi.

Natijalar. Umuman, maqollar har bir xalqning milliy o‘zligi, uning uzoq yillar davomida to‘plagan hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bebaho boyligidir. Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir. Bir so‘z bilan aytganda, maqollar xalqning o‘tmishini aks ettiruvchi ko‘zgudir.

Odatda, tilshunoslikda maqollar “paremalar” deb ham yuritiladi. Bu o‘rinda biz ayrim tadqiqotlardagi maqolni “parema” deb atalish fikriga qo‘shilmaymiz. Chunonchi, parema keng tushuncha bo‘lib, u, odatda, idioma, ibora, matal va maqolmatal tipida birliklarni o‘z ichiga oladi. Zotan o‘z ma’nosida qo‘llanadigan parema ko‘chma ma’no kasb etib maqolga aylanadi.

An’anaviy tilshunoslikda maqollar struktur-semantik jihatdan o‘rganilib, ularning leksik tarkibi, sintaktik tuzilishi, variantlari, shuningdek, ma’noviy-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. O‘zbek an’anaviy tilshunosligida esa maqollarning lisoniy xususiyatlari, o‘zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, ularning morfologik, sintaktik, ba‘zi ma’noviy-uslubiy xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, o‘zbek tilida maqol va matallar leksikasi tahlili, lisoniy mavqeyi va ma‘noviy uslubiy qo‘llanilishi tadqiqotga tortilib, maqol va iboralarni birlashtirib turuvchi yagona belgi – ularning ma‘no jihatdan idiomatik xarakterda ekanligi asoslangan hamda etimologik jihatdan maqol va ibora orasidagi farqlar ko‘rsatib berilgan.

Zamonaviy antroposentrik tilshunoslikda maqollar lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda kommunikativ-pragmatik aspektlarda tadqiq etilganini kuzatish mumkin. Lingvomadaniyatshunoslik fanining asoschilaridan biri bo‘lgan V.N.Teliya madaniyatning til bilan bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratib, “til butun bir madaniyatni o‘zida ifodalaydi” deb ta’kidlaydi. Binobarin, xalq madaniyatining ko‘zgusi sanalgan maqollarni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish samarali natijalarga olib keladi.

O‘zbek lingvomadayatshunosligi yo‘nalishda ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.A.Toshevaning tadqiqotida zoonim komponentli o‘zbek maqollarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ularda milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarning, ijtimoiy munosabatlarning ifodalanish darajasi ochib berilgan. O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollaridagi evfemizatsiyasi hodisasi Sh.Qalandarov tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, unda xalq maqollarida evfemik mazmunni voqelantiruvchi omillar, maqol evfemizatsiyasining badiiy-estetik xususiyatlari yoritib berilgan. G.Komilovaning ilmiy izlanishida o‘zbek tilidagi maqollar aksiolingvistik jihatdan tahlil qilinib, maqollaridagi olamning qadriyat manzarasi ochib berilgan, baho va qadriyat ifodasida maqollarning o‘rni, imkoniyatlari, lingvistik va pragmatik omillari lisoniy vositalar orqali ko‘rsatib berilgan. Xalq maqollarida lingvomadaniy kodlarning voqelanishi masalasi Z.Muqimovaning doktorlik dissertatsiyasida atroflicha tadqiq etilgan.

Tilshunoslikda maqollarni o‘rganishga oid pragma-diskursiv yondashuvlar so‘nggi yillarda alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda va ko‘plab tilshunoslar muhokamasi doirasida pragmalingvistik yondashuv asoslari ishlab chiqilmoqda. Xususan, nutqiy aktlar nazariyasi

asoschisi bo‘lgan J.L.Ostin pragmatika til birliklarining konkret nutq jarayonida, ma’lum bir kommunikativ vaziyatda qanday ma’no kasb etishini o‘rganishga oid ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra har bir gap faqatgina ma’lumot tashish faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki muayyan harakatni amalga oshirish vazifasini ham amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazardan maqollar ko‘pincha illokutsion (maslahat berish, ogohlantirish, tanbeh, kinoya kabi) xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan, yapon tilidagi 「口は災いの元」 *[Kuchi wa wazawai no moto]* “*Og‘iz baloning boshi*” yoki o‘zbek tilidagi “*Yaxshiga ergashsang, yetasan murodga, yomonga ergashsang, qolasan uyatga*” kabi maqollar adresant nutqida qo‘llanilganida ular orqali nafaqat adresantga ma’lum bir holat haqida ma’lumot beriladi, balki ogohlantirish hamda axloqiy baholash ifodasiga ham urg‘u beriladi va maqollarning kommunikativ-pragmatik funksiyalarini ochib berishga imkon beradi.

Maqollarni diskursiv yondashuvlar asosida tahlilga tortish til birliklarini keng ijtimoiy va madaniy kontekstda o‘rganishga asos bo‘ladi. T.A. van Deyk (Teun A. van Dijk) ta’kidlaganidek, til faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy amaliyotdir. Shunga ko‘ra, maqollar nutqda diskurs strategiyasi sifatida ishlatiladi va ular vositasida so‘zlovchi o‘z fikrini asoslaydi, mustahkamlaydi yoki qarama-qarshi pozitsiyani inkor etadi.

Xulosa. Maqollarga odatda muloqotning konkret ijtimoiy kontekstida qo‘llash uchun murojaat qilinadi va ular pragma-diskursiv birlik sifatida nutqda muhim kommunikativ funksiyani amalga oshiradi. Xususan, interaktivlik, umumlashtirish va baholash kabi diskursiv xususiyatlar maqollar tahlilida chuqur semantik va pragmatik yondashuvlar uchun asos bo‘la oladi. Ya’ni, maqolning so‘zlovchi bilan tinglovchi orasidagi muloqotga xizmat qiluvchi interaktivlik xususiyati pragmatik nuqtayi nazaridan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bog‘liq holda ko‘pincha illokutiv akt sifatida muloqotda faol rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqollar universal xulosa chiqaradigan umumlashtiruvchanlik xususiyatiga ham ega bo‘lib, hayotiy tajriba asosida xalq donishmandligini ifoda etuvchi vosita sifatida shakllanadi. Diskursiv tahlil nuqtayi nazaridan ushbu xususiyat maqollarni umumiy kontekstda qo‘llash imkonini ham beradi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, maqollar harakatga undash xususiyati nisbatan kuchliligi bilan ham xarakterlanadi. Odatda, maqollar buyruq ohangida nutqimizda voqelanib, nutq intensiyasi suhbatdoshni ma’lum bir harakatga undashga, da’vat etishga qaratilgan bo‘ladi. Kundalik muloqot jarayonida imperativ mazmunga ega bo‘lgan jumlalar so‘zlovchi tomonidan ma’lum bir vaqtda tinglovchini muayyan harakatni amalga oshirishga undash vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIOTLAR ROYHATI:

1. Abdullayev Sh. Fe’lning semantik va sintaktik tahlili. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 280.
2. Achilova O.F. Yapon va o‘zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari:Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Тошкент, 2025. – 217 b.
3. Achilova O.F. The factors that ensure the transition of the permissible meaning in dialogical speech. International Journal of Early Childhood Special Education 14 (7)

4. Ачилова О. Ф. Имплицит ва эксплицит прохибитивлик ёхуд пермиссивликнинг диалогик нутқда намоён бўлиши (япон тили мисолида) Academic research in educational sciences 3 (6),161-164,
5. Ачилова О. Ф. Рухсат мазмуннинг диалогик нутқда воқеланишини таъминловчи омиллар.Science and innovation 1 (JSSR), 83-86Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – B. 150.
6. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 32.
7. Homidov X. “Devoni lug‘atit-turk”dagi maqollar va hozirgi turk tili paremiologiyasi // Turkologiya xalqaro ilmiy jurnal. – Toshkent davlat sarkshunoslik universiteti, 2021. – B. 89.
8. Yo‘ldoshev A. O‘zbek tilining semantikasiga oid masalala. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – B.180.
9. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 7.
10. Халилова Н.М. Структурно-семантическая характеристика аварских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Махачкала, 2010. – 24 с.
11. Achilova O.F. Yapon va o‘zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Тошкент, 2025. – 217 b.
12. Achilova O.F. Yapon va o‘zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Avtoref.Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Тошкент, 2025. – 37 b.
13. Прохибитив ва пермиссив актларнинг диалогик нутқда воқеланиши (япон тили мисолида). Фил.фан.фалс.докт. (PhD) ... diss. – Тошкент, 2025. – 217 b.
14. Прохибитив ва пермиссив актларнинг диалогик нутқда воқеланиши (япон тили мисолида). Автореф.Фил.фан.фалс.докт. (PhD) ... diss. – Тошкент, 2025. – 217 b.
15. Ачилова, О. (2020). Средства выражения содержания приказа в японском языке. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74), 62–65. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1274 19.
16. Ачилова, О. (2016). Использование императивной формы в японском языке. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(1 (58), 88–90.
17. Farkhodovna A. O. The factors that ensure the transition of the permissible meaning in dialogical speech //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 7.
18. О.Ф.Ачилова. Мақол ва маталларда императивликнинг прагма – дискурсив талқини. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. 167-169. 2024-1/4
19. Ачилова О. Япон мулоқот матнида ҳаракатга ундовчи нутқий актлар. Монография. Самарқанд, SamDChTI nashriyoti. 2022. – 139 б.

20. Achilova O. Yapon va o‘zbek imperativ maqollarining pragma-diskursiv xususiyatlar. Монография. Hindiston, Novateur Publication, 2024. – 102 b.
21. Ачилова О.Ф. Мақол ва маталларда императивликнинг прагма – дискурсив талқини. // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. 2024-1/4. – Б. 166-169 (10.00.00; №21).
22. Ачилова О. Императив мақолларда муқобил таржима усуллари // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. 2024-10/4. – Б. 310-313 (10.00.00; №21).
23. Ачилова О. Буйруқ мазмунидаги мақолларнинг мазмун кўлами ва ифода усуллари (япон ва ўзбек тиллари мисолида) // Сўз санъати. 2024, №3. – Б. 171-175 (10.00.00; №31).
24. Ачилова О. Мулоқот матнида мақолларни фаоллаштирувчи омиллар (ўзбек ва япон тили мисолида) // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2024. – Б. 171-175 (10.00.00; №9).
25. Achilova O. Yapon muloqot matnida suhbatdoshni harakatga undovchi faktorlarning mohiyati // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. 2024. 12/4. - Б. 30-33 (10.00.00; №21).
26. Achilova O. Nutqda taqiq mazmunini faollashtiruvchi omillar (o‘zbek va yapon tillari misolida) // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – Samarqand, 2024. 2/6. –B. 201-205(10.00.00).
27. Achilova O. Ijozat va taqiq nutqiy aktlari voqelanishining sotsiopragmatik omillari (O‘zbek va yapon tili misolida) // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2025/1. – Б. 178-179 (10.00.00; №9).
28. Achilova O. Мулоқот diskursida proxibitivlikni faollashtiruvchi omillar // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2024/21. – Б. 173-175 (10.00.00; №9).
29. Achilova O. Taqiq mazmunning dialogik nutqda faollashuvini ta’minlovchi omillar // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2024/22. – Б. 147-149 (10.00.00; №9).
30. Achilova O. Hurmat kategoriyasining muloqot samaradorligini ta’minlovchi omil sifatidagi mohiyati // Сўз санъати. 2024. № 4. – Б. 108-112 (10.00.00; №31).